

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA POETIK TAFAKKURNING YAGILANISHI (TILLANISO IJODI MISOLIDA)

Nasiba Norova

BuxDU katta o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'dodli yosh shoira Tillanisaning “Qon” to‘plamiga kirgan “G‘oya” she’ri tahlilga tortilgan. Unda shoiraning ilgari surgan maqsad-muddaosi, ichki tuyg‘ulari lirik qahramon tilidan bayon etilgan.

Kalit so‘z: Hozirgi adabiy jarayon, she’riyat, obraz, g‘oya, harakter yaratish.

Adabiyot va san’atning rivoji jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, global muammolar, sanoat sohasidagi qurilishlar, qishloq xo‘jaligi, ilm-fan, sport, ma’naviy hamda madaniy hayotdagi yangiliklar bevosita adabiyotga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Bu omillar adabiyotimizning sermazmunligi, g‘oyaviyligi, ko‘tarinkiligi, hayotiyliigi, badiiy yetukligi va mavzular olamini belgilashda ham ahamiyat kasb etadi. Yosh iste'dodli shoira Tillaniso Eshboyeva ijodida, chuqur mulohazakorlik, badiiy tafakkur va serjilo ijodiy salohiyat ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoira she’riyatining yana bir xususiyati – barcha mavzulardagi she’rlarda inson ma’naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqlardagi betakrorligidir. Aslida shoira an’naviy mavzularga ham ko‘p murojaat qilib, ularga yangicha, o‘ziga xos tarzda yondashgan. Hayotning boshqalarga pinhon nuqtalarini ko‘ngil ko‘zi ila ko‘ra olgan va buni o‘z ijodida yorqin tasvirlashga harakat qilgan. Shoiraning “Qon” to‘plamidan o‘rin olgan qator she’rlari fikrimizni isbotlaydi.

*Sevgilim,
Bugun sendan sevgi so‘ramayman,
G‘oya ber menga,
G‘oya.
“G‘oyasiz kitoblarni o‘qimang”.
“G‘oyasiz yashamang”,
“Dunyoni buzing!”¹*

She’r murojaat shaklida boshlangan. She’rning dastlabki satrlaridayoq Halima Xudoyberdiyevaning “Shunchaki” she’rini yodga soladi.

*Shunchaki yozmoqqa, ko‘ngil to‘lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.
Shunchaki yozganga chidab bo‘lmaydi,*

¹ Tillaniso. Qon. - Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.60.

Shunchaki yozmoq bu – shoirga o‘lim!

Haqiqatan ham shunchaki yozmoq –

faqat shoirning emas, adibning ham, olimning ham o‘limidir”². Ya’ni “G‘oyasiz yashamang”, “Dunyoni buzing!” shaklida ifodalangan. Shoira dunyodan maqsad-muddaosi, orzu-niyati, xohish-istagi bo‘lmagan bir ommani uyg‘otishni istaydi. Hayotda maqsadsiz yashamang qabilida o‘ziga ham ruhiyatiga, hissiyotlariga qalbiga taskin beradigan bir g‘oyani izlaydi.

...Dindorning din degan g‘oyasi,

Jadidlarning ilm degan g‘oyasi...

tarzida sanaladi. Chindan ham, jadidlar yoshlarni nafaqat diniy balki dunyoviy bilimlarni egallashlari bilan ma’rifatli xalq orzusini ilgari surgan. Bugungi kunda jadidlarning hayot va ijod yo‘li yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatilayotganda ularning mashaqqatli hayot yo‘li ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Ayollarning “bolam” degan, fohishaning ham o‘z g‘oyalari borligi, g‘o‘ddaygan tund shoirlarning ham o‘z g‘oyalari borligi ta’kidlanadi.

Muhammad Yusuf “Maktub” she’rida “Do‘stlarim, takabbur shoirvachchalar, O‘zlarin sevishar yoridan ko‘proq”, – deb yozganida shoirlarga nisbatan takabbur so‘zini qo‘llagan ekan. Tillanisa esa, g‘o‘ddaygan tund so‘zlarini lirik matnga singdirilishi she’ring ta’sir kuchini oshirgan.

Shoiraning nigohi nafaqat o‘z xalqi tashvishlari va jahon xalqlarida yuz berayotgan globall muammolar bilan qiyoslanadi. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov “Globallashuv” she’rida yozganidek:

Zaminni bir ari chaqqani chog‘i,

Qabarib chiqadi ikkinchi yog‘i.

Tillaniso esa:

Paranjisin yechib otgan tolibaning,

Rossiyada o‘lgan mardikor yigitning ham

bo‘lgan g‘oyasi.

–deb yozadi. Ya’ni yaqin Sharqda va dunyoda yuz berayotgan jahonshumul muammolarga o‘z munosabatini bildirib o‘tadi. Shu tobda she’rga tub burilish yasab antik dunyo adabiyotiga va qahramonlariga ham murojaat qiladi³. Mediya sevgi va rashk timsoli sifatida tasvirlangan.

² Худойбердиева Х. Танланган асарлар. - Тошкент: Шарк, 2018. – Б.6.

³ Qarang: U.Hamdani. A.Qosimov. Jahon adabiyoti. - Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – B.66.

Yevripidning eng mashhur tragediyalaridan biri. Meloddan avlgi 431-yil Afina sahnasida qo‘yilgan. Asar sujeti “Argonavtlar” haqidagi afsonadan olingan. Bir qancha Yunon pahlavonlari Yason boshchiligida oltin qo‘y junini olib kelish uchun “Argo” kemasida Kolxida eliga jo‘naydilar. U yerda podshoning qizi, quyosh ma’budi Geliyosning nabirasi go‘zal Mediya Yasonni sevib qoladi, uni deb ota-onasi, vatanidan voz kechadi, akasini o‘ldiradi. Oltin qo‘y junini Yunonistonga olib kelgach, ular turmush quradilar. Bir qancha muddat o‘tgach, Yason Korinf shohi Kerontning qizi Glafkaga uylanmoqchi bo‘ladi. Yevripid asari xuddi ana shu joydan boshlanadi. Bevafoqlikdan g‘azablangan Mediya eridan qasos olishga ahd qiladi, keyin uning otasi va o‘z farzandlarini o‘ldirib ajdaholar qo‘shilgan aravada uchib

Go 'dagini olovda yoqqan Medeyaning

Bor edi-ku g'oyasi.

She'ring kulminatsiyon satrlari ushbu satrlarda deyish mumkin.

Bir g'oya bormi

Umrbod,

Aldovsiz va rost?

Tiriklayin meni jonim manguga,

Bormi shundayin g'oya?

Shundayin g'oyang yo 'q ekan,

Hayotni umid qilma, sevgilim,

Itday tepib chaqirishar seni oralaridan,

Tuproqday o'tishar toplab,

Hatto hayot o'zgaradi mag'rur yuzini,

Sevgilim, bizga g'oya lozim, faqat g'oya,

Insoniylikning o'zi g'oya emas,

Inson deylishi uchun g'oya lozim, sevgilim.

Eng oxirgi xulosa original tarzda ifodalangan. "Inson deylishi uchun g'oya lozim, sevgilim". Shaxs va odam konsepsiyasini mohirna tasvirlaydi. Satrlarda so'zlarning joylashish o'rniga qarab iste'dodli shoir Shavkat Rahmon she'rlari yodga tushadi. Ushbu she'rda isyonkorlik ham boshdan oxir sezilib turadi. Xulosa chiqarishni kitobxonga ham yuklaydi. Garchand kitobxon ilgari surilgan g'oyalarni "hazm qilish"ga biroz qilynalar. Cheksizliklar, kengliklar, hadsiz-hududsiz hissiyotlar bir qarashda kishini o'ylantirib qo'yadi. Biroq Tillaniso bunday o'y-xayollarga begona emas. Buni she'ring har bir satri aytib turibdi. Ana shu ruhiyatni she'rxon qalbiga ko'chirishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedova, Shoira, and Sofiya Mahmudova. "ABU ALI IBN SINA ON A CRITICAL BIOGRAPHICAL ESSAY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.7 (2022): 795-799.
2. Axmedova, Shoira. "THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE FORMATION OF UZBEK LITERARY CRITICISM." *Конференции*. 2021.
3. Ахмедова, Ш. Н., & Назарова, Д. (2021). АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ ХУСУСИДА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(3).
4. Ахмедова, Шоира Нематовна. "ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАҚҚИЁТИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.6 (2020).

5. Ахмедова Ш. Н. ХУРШИД ДАВРОННИНГ АДАБИЙ–ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ: Ахмедова Шоира Нематовна, БухДУ ўзбек адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. доктори //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.2. Махсус сон. – С. 20-28.
6. Ахмедова, Шоира Нематова. "ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (2019): 12-14.
7. Ахмедова, Шоира Нематовна, Лосеева-Танем Бахтияри, and Насима Саидбурхановна Кадирова. "О Творческой Специфике Литературной Критики." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 326-329.
8. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
9. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
10. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
11. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
12. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
13. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
14. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
15. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА “ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»)) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
16. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
17. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
18. Gaybulloevna, D. S., & Bakhtiyorovna, N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.

19. G'aybulloevna, D. S. (2024). TILAK JO 'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 212-218.
20. NEMATOVNA, A. S. ., SAIDBURKHONOVNA, K. N. ., & BEKMURODOVNA, K. O. . (2021). METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS. *The Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(5), 778–784. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/2022>
21. Nematovna, Akhmedova Shoira. "GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI." *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*: 127
22. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
23. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
24. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
25. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
26. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
27. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
28. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
29. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
30. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
31. Tillaniso. Qon. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – В.60.
32. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – В.6.
33. U.Hamdani. A.Qosimov. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – В.66.
- 34.
35. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.

36. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
37. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm // Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.
38. Шарипова Л. ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: Лайло Шарипова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. д //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 4. – С. 53-56.
39. Sharipova L. MUALLIFI SINGARI DILBAR SHE’RLAR.. //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 64-69.
40. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
41. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
42. Sharipova L., Boboxo‘Jayeva L. A. XALQ OG ‘ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA’SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
43. Sharipova L. HAM TA’LIM, HAM TARBIYA BERUVCHI SHE’RLAR.. //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 169-173.
44. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
45. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.